

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarning 2024-yil ijrosi bo'yicha hisobotga tushuntirish xati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2023-yildagi PQ-422-son O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida Qarorida byudjetdan ajratilgan mablag'larning samarali sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishini ta'minlash to'g'risida vazirlikning 2024-yil 19-yanvardagi 20-son buyrug'i qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2023-yildagi PQ-422-son qarori 7-ilovasi 2-bandi bilan tasdiqlangan **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining** 2024-2026- yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari tasdiqlangan. 2024-yil uchun vazirlikga **6 ta** Rivojlantirish dasturlari va **31 ta** maqsadli indikatorlarining prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangan.

2024-yil uchun aniqlangan rejaviy ko'rsatkichida 5 trillion 847 milliard 276,0 mln. so'm mablag' ajratilishi belgilangan.

Bajarilishi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tasarrufidagi muassasalar uchun UzAsbo 2 dasturi orqali tahlil qilinganda amalga oshirilgan jami xarajatlar miqdori 2024-yilda respublika byudjetidan **5 trillion 671 milliard 966,0 mln. so'mni** tashkil etgan. Yillik ko'rsatkichga nisbatan **97,0 foizni** tashkil etadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi uchun 2024-yilga **Strategik maqsad** sifatida: Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish belgilangan.

1.1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tasarrufidagi muassasalar joriy xarajatlari uchun 2024-yil uchun 3 trillion 909 milliard 372,1 mln. so'm mablag' ajratilgan.

Bajarilishi

2024-yil 31-dekabr holatiga UzAsbo 2 dasturi orqali tahlil qilinganda amalga oshirilgan jami joriy xarajatlar miqdori **3 trillion 803 milliard 354,2 mln. so'mni** tashkil etgan. Yillik ko'rsatkichga nisbatan **97,3 foizni** tashkil etadi.

Yakuniy natija ko'rsatkichi

Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan) 2024-yilda 43 foiz belgilangan.

Bajarilishi

Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan) 2024-yilda **43 foizni tashkil etdi va reja to'liq** bajarildi.

2024/2025 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilarini kasb-hunar maktablariga qabul qilish ulushi 2024-yilda 17 foiz belgilangan.

Bajarilishi

2024/2025 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilarini kasb-hunar maktablariga qabul qilish ulushi 2024-yilda **21,0 foizga** bajarildi.

Tadqiqotchilarning umumiy sonida 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushi 2024-yil uchun **50 foiz** belgilangan.

Bajarilishi

2024-yilda tadqiqotchilarning umumiy sonida 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushi **75,0 foizni** tashkil etgan.

Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar soni 2024-yil uchun **22 ta** belgilangan.

Bajarilishi

2024-yilda ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan **22 ta** yangi innovatsion (spin-off) korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Sohaga oid **7 ta** davlat xizmatlari sonini elektron ko'rinishga o'tkazish rejalashtirilgan.

Bajarilishi

Sohaga oid **7 ta** davlat xizmatlari to'liq elektron ko'rinishga o'tkazilgan va amaliyotga joriy etilgan.

2024/2025 o'quv yilida bakalavariat bo'yicha Oliy ta'limga kirishi belgilangan o'quvchilarni soni **207415 nafar** belgilangan.

Bajarilishi

2024/2025 o'quv yilida bakalavariat bo'yicha Oliy ta'limga kirgan o'quvchilarni soni **208039 nafarni** tashkil etgan.

2024/2025 o'quv yilida kasb-hunar maktablariga kirgan o'quvchilar soni **112989 nafar** belgilangan.

Bajarilishi

2024/2025 o'quv yilida kasb-hunar maktablariga kirgan o'quvchilar soni **123133 nafarni** tashkil etgan.

Xorijda malaka oshirgan va stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni 2024-yilda rejaviy ko'rsatkichi **4000 nafar** belgilangan.

Bajarilishi

2024-yilda xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni **4970 nafarni** tashkil etgan va reja **124,2 foizga** bajarilgan.

Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari soni 2024-yil uchun **5200 ta** belgilangan.

Bajarilishi

Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga o'qitish bo'yicha ajratilgan qabul kvotalari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va innovatsiyalar kengashining 2023-yil 11-avgustdagi 21-son bayoniga muvofiq Innovatsion rivojlanish agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 161-son buyrug'i bilan ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalar kesimida akkreditatsiyadan o'tgan ixtisosliklar bo'yicha tasdiqlangan. Bunda 2024-yilga ajratilgan kvotalar jami **5200 tani tashkil etgan va reja ijrosi ta'minlangan.**

2024-yil uchun ilmiy tadqiqotchilar soni **15650 nafar** belgilangan.

Bajarilishi

2024-yilda ilmiy tadqiqotchilar soni reja asosida **22905 nafarni** tashkil etgan va reja ijrosi 146,3 foizga ta'minlangan.

2024-yilda ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 14000 nafar belgilangan.

Bajarilishi

Ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 2024-yil 31-dekabr holatiga **17430 nafarni** tashkil etgan va ijrosi **124,5 foizga** bajarilgan.

1.2. Oliy ta'lim muassasasida magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash xarajatlari dasturiga asosan 2024-yilda aniqlangan rejaga ko'ra 95,9 mlrd so'm ajratish belgilangan.

Bajarilishi

2023/2024 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilingan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash xarajatlari dasturi asosida 2024-yilda **95,4 mlrd so'm** to'lab berilgan.

Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning ulushi (jami magistrlar soniga nisbatan) 26,4 foiz belgilangan.

Bajarilishi

2024-yilda davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning ulushi jami magistrlar soniga nisbatan **30,9 foizni** tashkil etadi va ijrosi 133,3 foizga ta'minlangan.

Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar soni 5991 nafar belgilangan.

Bajarilishi

Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar soni 2024-yilda **10020 nafarni** tashkil etgan va ijrosi 167,2 foizga bajarilgan.

Davlat oliy ta'lim muassasalari magistrlar soni 2024-yil uchun 22662 nafar belgilangan.

Bajarilishi

Davlat oliy ta'lim muassasalari magistrlar soni 2024-yilda **28403 nafarni** tashkil etgan va yillik reja 125,3 foizga bajarilgan.

1.3 Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar dasturida 2024-yil uchun 346,5 mlrd so'm ajratilishi belgilangan.

Bajarilishi

2024-yilda Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun jami ajratilgan 346,5 mlrd so'm subsidiya mablag'laridan **345,2 mlrd so'm** sarflangan va ijrosi **99,6 foizga** ta'minlangan.

Talabalarni turar joyi bilan qamrab olish darajasi 2024-yilda (ehtiyojga nisbatan) 47,3 foiz belgilangan.

Bajarilishi

Talabalarni turar joyi bilan qamrab olish darajasi 2024-yilda ehtiyojga nisbatan **57,3 foizga** bajarilgan.

Talabalar turar joyi sig'imi 2024-yilda 127241 o'rin belgilangan.

Bajarilishi

Talabalar turar joyi sig'imi 2024-yilda **144458 o'rinni** tashkil etgan va yillik reja **113,5 foizga** bajarilgan.

Talabalar turar joyiga extiyoj 2024-yilning rejaviy ko'rsatkichida **269200 o'rin** belgilangan.

Bajarilishi

Talabalar turar joyiga extiyoj 2024-yilda amalga oshirilgan hisob-kitoblardan so'ng **251983 o'rinni** tashkil etgan va yillik rejaga nisbatan **93,5 foizni** tashkil etgan. Talabalar turar joyiga joylashish tartibi oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirilishi va talabalar turar joyiga arizalar 2024-yilda elektron tarzda qabul qilinishi yo'lga qo'yilishi natijasida ehtiyoj aniqlashtirildi.

1.4. Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan talabalar turar joyida yashagan talabalar uchun davlat sherigiga to'lanadigan subsidiyalar dasturi bo'yicha 2024-yil uchun **18,2 mlrd. so'm** ajratilgan.

Bajarilishi

Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan talabalar turar joyida yashagan o'quvchilar uchun 2024-yilda davlat sherigiga **18,1 mlrd. so'm** to'langan.

Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan, ishga tushirilgan va subsidiya ajratilayotgan talabalar turar joylari reja bo'yicha **9770 o'rin** belgilangan.

Bajarilishi

Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan, ishga tushirilgan va subsidiya ajratilayotgan talabalar turar joylari 2024-yilda **9770 o'rin** foydalanishga topshirildi va yillik reja **100 foizga** bajarildi.

1.5. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida beriladigan har oylik subsidiyalar ajratish dasturi asosida 2024-yilda **1,7 mlrd. so'm** ajratilishi rejalashtirilgan.

Bajarilishi

2024-yil uchun "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida beriladigan har oylik subsidiyalar uchun **228 nafar** o'quvchilarga **199,6 mln. so'm** to'langan. Shundan 160 nafar o'quvchilarga subsidiya mablag'laridan 119,7 mln so'm, 68 nafar o'quvchilarga mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 79,9 mln so'm to'langan.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar ulushi (*jami o'quvchilar soniga nisbatan*) **0,3 foiz** miqdorida belgilangan.

Bajarilishi

2024-yilda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar ulushi (*jami o'quvchilar soniga nisbatan*) **0,4 foizni** tashkil etgan.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar soni 2024-yilda **1000 nafar** belgilangan.

Bajarilishi

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar soni 2024-yilda **1401 nafarni** tashkil etgan.

Professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2024-yilda **410392 nafar** belgilangan.

Bajarilishi

Professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2024-yil 31-dekabr holatiga **353047 nafar** bo'lib, yillik rejaga nisbatan 86,0 foizni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2024-yildagi PF-158-son

Farmoniga asosan vazirlik tizimidagi 331 ta kasb-hunar maktablari tugatilib, negizida texnikumlar tashkil etilganligi sababli o'quvchilar qabuli kamaygan.

1.6. Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturi bo'yicha 2024-yilga **715,0 mlrd. so'm** mablag' ajratilishi belgilangan.

Bajarilishi

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturi uchun 2024-yilda kassa xarajatlari **675,0 mlrd so'mni** tashkil etgan.

Xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga ilmiy stajirovkaga yuborilgan tadqiqotchilarning umumiy sonida 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushi 2024-yil uchun **77,0 foiz** miqdorida belgilangan.

Bajarilishi

Xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga 2024-yilda ilmiy stajirovkaga yuborilgan tadqiqotchilarning umumiy sonida 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushi **88,1 foiz** etib bajarilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli universitet va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun 2024-yilda **145,0 dona** xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bajarilishi

Rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli universitet va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda 2024-yilda **115 ta** xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan va ushbu ko'rsatkich ijrosi **79,3 foizga** ta'minlangan. Davlat ilmiy dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy loyihalarni moliyalashtirish tartibida o'zgartirish kiritalayotganligi sababli yil davomida rejadagi tanlovlar tashkillashtirilmagan.

Davlat ilmiy dasturlari doirasida iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojariga muvofiq 2024-yilda **165 dona** ishlanmalar va texnologiyalarni yaratish rejalashtirilgan.

2024-yilda davlat ilmiy dasturlari doirasida iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojariga muvofiq **166 ta** yangi ishlanmalar va texnologiyalar yaratilgan bo'lib, ijrosi **100,6 foizga** ta'minlangan.

Yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborilgan yosh olimlar soni 2024-yil uchun **240 nafar**, belgilangan.

2024-yilda yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborilgan yosh olimlar soni **360 nafarni** tashkil etgan va ijrosi yillik rejaga nisbatan **150,0 foizga** bajarilgan.

2024-yilda maqsadli indikatorlarni bajarilishi bo'yicha hisobotlar tahlili bo'yicha xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2023-yildagi PQ-422-son O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida Qarorida byudjetdan ajratilgan mablag'larning samarali sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishini ta'minlash bo'yicha vazirlikning 2024-yil 19-yanvardagi 20-son buyrug'i qabul qilingan, ushbu buyruq ijrosini tizim tashkilotlarida ta'minlash maqsadida ijro nazorati tizimi orqali tashkilot va muassasalarga yetkazilgan.

Maqsadli indikatorlarning ijrosini baholash tartibini tasdiqlash to'g'risida vazirlikning 2024-yil 2-fevraldagi 28-sonli buyrug'i qabul qilingan hamda ijrosini ta'minlash uchun mas'ul bo'linmalarga va tizim tashkilotlariga yetkazilgan.

Vazirlikning 2024-yil uchun rejalashtirilgan byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari ijrosi yuzasidan mas'ul bo'linmalar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar Vazirlikning tegishli buyruqlari bilan belgilangan tartib asosida tayyorlanganligi hamda tasdiqlangan rejaviy ko'rsatkichlar bilan taqqoslangan holda tahlil qilindi va quyidagi tartibda baholandi:

Maqsadli indikatorlar ijrosi yuzasidan topshirilgan hisobotlar tasdiqlangan ko'rsatkichlar asosida tayyorlanganligi hamda ularning ijrosida, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga zid holatlar aniqlanmadi.

Mas'ul bo'linmalar tomonidan maqsadli indikatorlarning bajarilishi bo'yicha taqdim etilgan hisobotlar, tizimdagi muassasalardan olingan birlamchi ma'lumotlar asosida shakllantirilganligi tahlil qilindi.

Maqsadli indikatorlarning ijrosi bo'yicha hisobotlarni quyi pag'onadan yuqori pag'onagacha to'g'ri shakllantirish tartibiga amal qilinganligi o'rganildi.

Maqsadli indikatorlarga erishish uchun 2024-yilda ajratilgan mablag'larni boshqa maqsadlarga yo'naltirish holatlari aniqlanmadi.

Maqsadli indikatorlarning 2024-yilda bajarilishi yuzasidan mas'ul bo'linmalar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar tahlil qilinganda **2024-yil uchun professional ta'lim muassasalarida o'qigan va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida beriladigan har oylik subsidiyalar to'lovi uchun ajratilgan 1,7 mlrd so'm subsidiya mablag'lari to'liq o'zlashtirilmaganligi aniqlandi.**

2024-yilda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 1401 nafar yoshlardan 160 nafariga ularning amaliyotni o'tashi davrida beriladigan har oylik subsidiyalar uchun 119,7 mln so'm to'langan va reja 5,9 foizga bajarilgan.

Mazkur indikatorning to'liq bajarilmasligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2024-yildagi PF-158-son Farmoniga asosan vazirlik tizimidagi 331 ta kasb-hunar maktablari tugatilib, negizida texnikumlar tashkil etilganligi sababli bo'lgan.